

HUQUQBUZARLIKlar PROFILAKTIKA INSPEKTORI FAOLIYATIREYTING BAHOLASH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

O'zbekiston respublikasi ichki ishlar vazirligi akademiyasi
3 kurs kursanti Tolibxonov Zikirxon Quvvatxon o'g'li

Anotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kundagi huquqbazarliklar profilaktikasi inspektorlari faoliyat samaradorligiga bog'liq ma'lumotlar hamda bugungi kunda uchraydigan amaliyotdagi bir qator muammolar va ularni yechimlari to'g'risida so'z yuritiladi. Qolaversa huquqbazarliklar inspektorlari faoliyat samaradorligini baholash yuzasidan bir qator takliflar hamda chetel tajribasidan ham keng tartibda qo'llanilgan fikrlardan to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Profilaktika, stastistika, ilova, chora-tadbirlar, samaradorlik, reyting, reyting baholash.

Mustaqillik yillarda respublikada huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, mamlakatda huquq-tartibotni ta'minlashda ijobiy natijalarga hamda kriminogen vaziyatni sezilarli darajada yaxshilashga erishildi. Shu bilan birga, huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi davlat organlarining ish shakli va uslublari, eng avvalo axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan yetarli darajada foydalanilmayotganligi sababli hozirgi kun talablariga to'liq javob bermaydi. Davlat idoralari aksariyat hollarda huquqbazarliklar profilaktikasini faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi sifatida baholab, oqibatda ushbu faoliyatga lozim darajada e'tibor qaratmayapti. Davlat idoralari aksariyat hollarda huquqbazarliklar profilaktikasini faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi sifatida baholab, oqibatda ushbu faoliyatga lozim darajada e'tibor qaratmayapti. Vakolatli organlarning yetarli darajada tashabbus ko'rsatmayotganligi, lozim darajadagi idoralararo hamkorlikning mavjud emasligi, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning o'zaro nomutanosibligi huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirishni talab etadi. Vakolatli organlarning yetarli darajada tashabbus ko'rsatmayotganligi, lozim darajadagi idoralararo hamkorlikning mavjud emasligi, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning o'zaro nomutanosibligi huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirishni davr talabiga aylantirmoqda. Huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirishning ta'sirchan tizimini yaratish, qonun buzilishlarining oldini olish va ularni bartaraf etishning zamonaviy tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish

maqsadida bir qator loyhalarni amalgalash oshirmoqda. Shunda loyhalardan biri bu huquqbuzarliklar profilaktika inspektorlari faoliyatini baholash hisoblanadi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari faoliyatini baholash faoliyat natijasida huquqbuzarliklar profilaktika inspektorlari faoliyatidagi mustaqillik, xolislik, halollik, professional layoqatlilik va maxfiylik prinsiplari jadallik bilan rivojlanishiga hamda huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari o'z ximat vazifalarini yuksak darajada aniqlik bilan shakillantirishdagi xushyorlik, zeyraklik, o'z ustida ishlash, yuridik bilimini yuksalishida ham o'z ta'sirini o'tkamasdan qolmaydi albatta.

Xususan yuqorida tariflayotgan loyha o'z oldiga qator maqsad va vazifalarni belgilab olgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Bular;

birinchidan, ushbu loyiha natijasida huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari ish samaradorligi natijasini yanada ko'tarish

ikkinchidan, huquqbuzarliklar profiloaktikasi inspektorlari faoliyati to'g'risida yuqori organlarning manetoring hisobot ishlarini olib borish

uchinchidan, huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlarini lavozimga qay darajada loyiq yoki loyiq emasliklarini belgilab berish

to'rtinchidan, hududdagi kreminogen vaziyat hamda huquqbuzarliklarni latent holatlarini sezilarli darajada kamayishi kabilarni o'z ichiga olgan.

Avvalo biz baholash atamasiga to'g'ri tarif berishimiz lozim bo'lib baholash – bu ta'limdagi turli darajadagi yutuqlar uchun standartlashtirilgan o'lchovlarni qo'llash jarayoni. Baholar harflar sifatida (odatda A dan F gacha), diapazon sifatida (masalan, 1 dan 6 gacha), foiz sifatida yoki mumkin bo'lgan umumiy raqamdan (ko'pincha 100 dan) raqam sifatida berilishi mumkin.

Baholash juda keng qamrovli tushuncha bo'lib tarkibiy funksiyalari;

- **Tartibga solish** — shaxs tomonidan vazifalarini qabul qilish va shaxsiy qarorlarni tanlash

- **Himoyalash** — shaxsning nisbiy barqarorligini va uning mustaqilligini ta'minlash.

- **Rivojlanish-** shaxsni rivojlanish va takomillashtirishga undaydi.

- **Reflektiv** (yoki signal) — insonning o'ziga va uning harakatlariga bo'lgan haqiqiy munosabatini aks ettiradi, shuningdek, sizning harakatlaringizning adekvatligini baholashga imkon beradi.

- **Hissiy** — insonga o'z shaxsiyati, uning fazilatlari va xususiyatlaridan qoniqish his qilish imkonini beradi.

- **Moslashuvchanlik** — insonning jamiyat va uning atrofidagi dunyoga moslashishiga yordam beradi.

- **Prognostik** — faoliyatning boshida shaxsning faoliyatini tartibga soladi.

- **Korreksion** — faoliyatni amalga oshirish jarayonida nazoratni ta'minlaydi.

• Retrospektiv — insonga uni amalga oshirishning yakuniy bosqichida uning xatti-harakati va faoliyatini baholash imkoniyatini beradi.

• Rag'batlantirish - ma'qullash va ijobiy o'zini o'zi baholash reaktsiyalarini olish uchun harakat qilishga undaydi (o'zini qoniqtirish, o'zini o'zi qadrlash va g'ururni rivojlantirish).

• Terminal — agar uning xatti-harakatlari o'z-o'zini tanqid qilish va o'zidan norozilik paydo bo'lishiga hissa qo'shsa, odamni to'xtatadi (faoliyatini to'xtatadi).

Ana endi huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektori faoliyatini baholashga faoliyatiga keladigan bo'lsak bunda maxsusu vakolatga ega bo'lgan organlar tomonidan ushbu xodimning qaydarajada o'z faoliyatini amalga oshirayotganligi uni o'z faoliyatiga munosib yoki munosib emasligi aniqlash va qolaversa uning faoliyat natijalariga ko'ra rag'batlantirish yoki jazolsh choralarini qo'llash tushuniladi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektori faoliyati samaradorligini baholash bu ham murakkab ham juda samarali faoliyat hisoblanadi lekin ushbu sohada vaqt o'zgarishi bilan bir qator muammolar vujudga kelaboshladi.

Xulosa qilib aytadiga bo'lsak ushbu huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari faoliyatini baholash tizimiga quydagilarni kiritish joiz deb o'layman. Bular bevosita huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari faoliyatini aholi tomonidan baholovchi kriteriyani ham ushbu baholash tarkibiga kiritishlik zarur bo'lib, agarda salbiy fikrlar belgilangan kursatgichdan yuqori bo'lasigan bo'lsa Huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektori balidan tegishli jarima bali belgilab uning to'plagan jami balidan olib tashlashlik lozim.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T. O'zbekiston 2019
- O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.T Adolat 2019
- O'zbekiston respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi.T.Adolat 2019
- O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsesseul kodeksi.T. Adolat.2019
- O'zbekiston Respublikasi IIO lari to'g'risidagi qonuni.T.2016 yil 16 sentabr'.
- O'zbekiston Respublikasining Huquqbuzarliklar profilaktikasisi to'g'risidagi qonuni.T 2014 yil 14 may
- O'zbekiston Renspublikasining YOshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonuni. T. O'zbekiston.2016 yil 14 sentabr'
- O'zbekiston Respublikasining Terrorizimga qarshi kurash to'g'risidagi qonuni.T O'zbekiston. 2000 yil 15 dekabr'
- O'zbekiston Respublikasining Davlat xokimyati va boshqaruva organlarining ochiqligi to'g'risidagi qonuni.T.2014

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral’dagi 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta usituvor yo‘nalishi bo‘yicha xarakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora tadbirlari to‘g‘risidagi 4947 sonli farmoni.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 aprel’dagi 5005 sonli farmoni.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 fevral’dagi Toshkent shaxrida jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklar profilaktikasisi va jinoyatchilikka qarshi kurashni sifat jixatdan yangi tizimini yaratish to‘g‘risidagi 3528 sonli qarori.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 aprel’dagi IIO lari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora tadbirlari to‘g‘risidagi 2883 sonli qarori.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 aprel’dagi IIO lari bo‘linmalar faoliyatini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risidagi 2896 sonli qarori.
- I.A O‘zbekiston Respublikasi IIV ning 2017 yil 25 avgust’dagi IIO lari tomonidan huquqbuzarliklar profilaktikasisini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi 191 sonli buyrug‘i.
- O‘zbekiston Respublikasi IIV ning 2017 yil IIO lari tayanch punktlari profilaktikasi inspektorlarining xisobotlarini fuqarolar yig‘inlarida eshitish tartibi to‘g‘risidagi 193 sonli buyrug‘i.